

## MEHNAT QILISH ODOBI VA KASB MAHORATIDA MA'NAVIY TARBIYA

*Samarqand viloyati Urgut tumani 153- umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Karimova Feruza**

Tabiat insonga buyuk baxt – mehnat qilishni va undan zavq-shavq olishni in'om etgan. Inson mehnat bilan kamolga erishadi. Tarixda ajdodlarimiz ham o'zining kasb-hunarlarini bilan mashhur bo'lishgan. Ustozlar shogirdlarini mehnatda toblaganlar. Mehnatsiz komillikka erishib bo'lmasligini, “Oltin va kumushi bo'lmagan kishi kambag'al emas, balki kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir” deya uqtirganlar. Hazrati Bahouddin Naqshband “Dil ba yoru, dast ba kor”, ya'ni “Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin” degan g'oyani ilgari surgan. Xalq kishilarni oliy nasab va aslzoda bo'lsa ham, ammo hunari bo'lmasa, izzat va hurmat qilmagan.

Dunyoga dong'i ketgan olimlarning barchasi tinimsiz mehnat, ijod tufayli muvaffaqiyatlarga erishishgan. Muallimi soniy – Abu Nasr Forobiy, al-jabr, ya'ni algebraning asoschisi Muhammad Muso Xorazmiy, qomusiy bilimlar sohibi Abu Rayhon Beruniy, shayxur rais – donishmandlar ustozlari Abu Ali ibn Sino, til ilmining bilimdoni – Zamaxshariy, yulduzlar olamining olimi – Mirzo Ulug'bek kabi qator allomalarning ko'pini maktabda tarix va adabiyot orqali tanigansiz. Ajdodlarimiz nafaqat bir sohani egallashgan, balki juda ko'p fanlarni mukammal o'zlashtirganlar. Ayrim ilm sohalariga tamal toshini qo'yganlar. Faqat bir sohani to'liq o'rgandim degan kishi tan olinmagan. Chunki fanlar hammasi biri biriga chambarchas bog'liqdir.

Hazrati Imom Abu Bakr Muhammad ibn Aliy ibn Ismoil Qaffol Shoshiy mohir hunarmand bo'lib, qulfsozlikda shuhrat qozongan, og'irligi atigi yarim gramm keladigan ajoyib qulf-kalit yasaganligi uchun “al-Qaffol” – “qulfchi” degan nom bilan e'zozlangan. Idris alayhissalom kotiblik, Dovud alayhissalom temirchilik, Muhammad alayhissalom chorvachilik va savdogarlik, Sayyid Mir Kulol kulolchilik, Zangiota cho'ponlik, Bahouddin Naqshband matolarga naqsh bosganlar, Buxoro amiri Shohmurod charmgarlik bilan shug'ullangan. Barcha mashhur ulamolar ham o'z rizqini kasb-koridan topishgan.

Hayot zavqi bilan mehnat qilsa Insonning vujudi ham, aqli ham mehnat talab qiladi. Aks holda ishlatilmay qo'ygan pichoqday zang bosadi.

Yoshlik insonning kelajak uchun poydevor qo'yish, aqlni peshlash, bilimlarni yig'ish, nodonlikka chek qo'yish, sipolikka, kasb-hunarga o'rganish davridir.

Yoshlikda ilm olishning o'zi yetarli emas. Uni amaliyotga tatbiq eta olmasa, vaqtini behuda o'tkazgan bilan barobardir. Barcha ulug' zotlar yoshlikdan vaqt, o'qish va mehnatni qo'ldan boy berishmagan.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarimiz ilm, kasb-hunar egallashlari uchun qanchadan-qancha shart-sharoitlar yaratib berilgani, keljak avlodga bo'lgan, ajdodlarga munosib voris bo'lishlik tushunchasi va imkoniyatini beradi.

Kasb odobi atamasi “kishilar o’rtasidagi kasb faoliyati bilan bog’liq munosabatlarga ma’rifiy tus beradigan xulq-atvor kodeksidir”, deya ta’riflangan. Kasb odobi xulq va axloq atamalari haqida maxsus fikr yuritib, “Axloq – barcha uchun birdek taalluqli hisoblangan... ma’naviy hodisa” deb yozadi. Kasbiy odob tushunchasi barcha uchun birdek taalluqli hisoblanmagan, balki muayyan kasb-kor egalarigagina mansub bo’lgan ijtimoiy xulq atvor qoidalari, me’yorlaridir.

Pedagogning kasbiy odobi. Bolaning ichki dunyosiga kira bilish, uning ishongan do’sti bo’lish, yaxshilikka yo’naltirish, javobgarlikni his qilishni singdirish, uni jamiyatga foydali inson qilib yetishtirish – bu pedagogikaning gumanitar tamoyilidir. Kasb odobi qonun-qoidalari kabinetlarda emas, balki, ish jarayonida shakllanadi.

Jurnalist odobi. Jurnalist odobi va masalaning ahloqiy-psixologik o’ziga xosligi yuksak ma’naviy javobgarlikni talab etadi. Bu – axborot manbasi bo’lib xizmat qiladigan, bu axborotlarni ishonib o’qiydigan odamlar va bu jurnalistlar ishlaydigan muassasalar oldidagi javobgarlikdir. Bu esa ijodiy izlanish va doimo o’z ustida ishlashni talab qiladi. Lekin jurnalistning mehnati faqatgina texnik tomonlarga qarab qolishi kerak emas. Kuchli javobgarlik hissi bilan bir qatorda, o’zini jurnalistikaga bag’ishlagan insonda erkin fikr, mustahkam iroda bo’lishi kerak. Jurnalist odobi o’z-o’zini nazorat qilib turishni talab etadi.

Shifokor odobi. Shifokor odobining qonun-qoidalarida hozirgi zamon sog’liqni saqlash amaliyoti oldida turgan masalalar aks etmoqda. Uning faoliyatida rioya qilishi zarur bo’lgan bir qator muhim qoidalar mavjud. Asosiy qoidalaridan biri bemorga ziyon yetkazmaslik. Vrach odobining yana bir qoidasi sir saqlashni talab etadi. Qasamyod burchi shifokorga xar qanday vaziyatda ham, qiyinchiliklarga qaramasdan bemorga yordam berishga undaydi, ba’zi xollarda o’z hayotini xavf ostiga qo’yib bo’lsa ham.

Rahbar odobi. Rahbar o’z hulq atvori bilann atrofida qilargilarga o’rnak bo’lishi kerak. Turli darajadagi rahbarlar bor, ularning xususiyatlari ham o’ziga yarasha har xil. Har birlariga o’zicha xos talablar qo’yilgan. Hushmuomala bo’lish, boshqalarning fikr va mulohazalariga befarq bo’lmaslik, sabrli bo’lish va asabiylashmaslik, adolatli bo’lish, ayniqsa o’z xodimlariga nisbatan diqqat-e’tiborli bo’lish rahbarning yaxshi xususiyatlaridan biridir.

Xalq davlat uchun emas, balki Davlat xalq uchun xizmat qilmog’i bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi. Barcha narsaning kaliti avvalo ilmu zakovat, yaxshi hunar ila mehnatdir. Shunday mehnatga barchamiz kamarbasta bo’laylik.